

**ASHTARXONIYLAR DAVRIDA MAMLAKATDAGI IJTIMOIIY  
HAYOT.NODIR MUHAMMAD HAYOTI VA FAOLIYATI.**

*Safoyeva Shahzoda Sayfullo qizi*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti*  
*1-TAR23 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro taxtida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayoti, davlat hukmdorlarining mamlakat hayotidagi o'рни va roli haqida hikoya qiladi. Shunihdek, bu maqola Ashtarxoniy hukmdor Nadir Muhammadning hayoti va faoliyati, o'sha davrning asosiy siyosiy hodisalari, iqtisodiy yuksalishlari va madaniy merosiga bag'ishlangan bo'lib, tarixiy jarayonlarning tahliliga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Astraxan, joniylar, ashtarxoniylar To'qay Temur, Jonibek sulton, Jo'ji, Boqi Muhammad, Chig'atoy, Nodir Muhammad, Yalangto'shbiy, Shibirg'on, madrasa.

1601-yilda Buxoro xonligida hokimiyat yangi sulola -ko'p hollarda joniylar (Joni Muhammadxon nomidan) yoki ashtarxoniylar (kelib chiqish o'рни bo'yicha) degan noma bilan yuritiladigan To'qay Temuriylar sulolasi qo'liga o'tdi. Ba'zi manbalarda aytilishicha, Buxoro taxtiga Boqi Muhammadxon o'z otasi Joni Muhammadxonni o'tqazgan va uning nomidan tangalar ham zarb qildirgan. Lekin Joni Muhammadxon Buxoro taxtidan voz kechgan. Buning asosiy sababi hokimiyatning qonuniyligi bilan bog'liq edi, albatta. Movarounnahr hokimiyati Chingizxon hukmronligi davridan boshlab uning o'g'li Chig'atoy va uning vorislari boshqaruviga berilgan edi. Chingizxon tomonidan joriy qilingan boshqaruv an'analari jamiyat ongiga singib ketgan bo'lib, mazkur an'analarni aristoktariyaning katta guruhi himoya qilar edi. Ya'ni, biror sulola vakillari o'zlari xohlagan shaxsni belgilangan tamoyillarga amal qilmasdan taxtga o'tqaza olmasdi. Demak, Movarounnahr taxtiga qonuniy da'vogarlik Chig'atoy, keyinchalik esa, Amir Temur avlodlariga o'tgan edi. Lekin Chingizxonning katta o'g'li bo'lgan Jo'ji avlodlarining Movarounnahrni bishqarishi Chingizxon qonunlariga zid edi. Shundan kelib chiqib, 1512-yilda shayboniy sultonlar Ko'chkunchixonni oliy hukmdor deb e'lon qilib, qonuniy asos sifatida uning ona tomonidan temuriy Mirzo Ulug'bekning nabirasi bo'lganligidan Movarounnahr taxtini egallash mumkin, deb hisoblaganlar.

Bir asrlik hukmronlik davomida asli Jo'ji avlodi bo'lgan shayboniylar Chig'atoy va Amir Temur avlodlari bilan qon-qarindosh bo'lib ketganlar hamda bu jarayon ham ularning hokimiyatini mustahkamlagan edi. 1601-yil hokimiyat tepasiga kelgan sulola vakillari yuqorida aytilganidek, Jo'jining o'n uchinchi o'g'li bo'lgan To'qay Temur naslidan bo'lgan va ular bu nasab bilan Movarounnahrni boshqara olmasdi.

Ma'lumki 1556-yilda Astraxan(Xoji -Tarxon) xonligi rus podshosi tomonidan bosib olingach, To'qay Temur nasluga mansub bo'lgan Astraxon xoni Yor Muhammadxon o'zboila a'zolari va qarindoshlari bilan Buxoroga kelgan edi. Buxoro xoni Iskandarxon Yor Muhammadxon va uning hamrohlariga o'z mamlakatidan bishpana berdi. Yoz Muhammadxonning o'g'li Joni Muhammad sultonga o'z qizi Zuxra xonimni xotinlikka berdi. Shu nikohdan uch o'g'il (Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) dunyoga kelgan edi. 1601-yil Joni Muhammadning taxtdan voz kechishi sabab ham- u ona tomondan ham, ota tomondan ham Chig'atoy , Amir Temur yoki movarounnahrlik shayboniylar avlodi bo'lgan o'g'illari ( uning o'g'illari Zuhra xonimdan tug'ilgan, bu bilan Buxoro xoni Iskandarxonning nabirasi hisoblanar edi) foydasiga taxtdan voz kechgan edi.

Sulola vakillari:

Boqi Muhammad (1601-1605)

Vali Muhammad (1605 -1611)

Imomqulixon (1611-1642)

Nodir Muhammad (1642- 1645)

Abdulazizxon (1645 -1681)

Subhonqulixon (1681-1702)

UbaydullaxonII (1702-1711)

Abulfayzxon(1711-1747)

Abdulmo'min (1747- 1751)

UabydullaxonIII (1751-1754)

Sherg'oziyxon (1754-1756)

Ashtarxoniylar sulolasining vakillaridan biri Nadr Muhammadxon 1593-yilda tavallud topgan<sup>1</sup>. Ona tomonidan Nodir Muhammad (s.a.v) ning avlodlari bo'lgan sayyidlarga borib taqaladi. Bu haqida ko'plab tarixiy asarlarda ham aniq faktlar saqlanib qolgan. Xususan, "Tarixi Muqimxoniy" asarida bu shunday hikoya qilinadi: "Shayboniy Abdulmo'minxon Mashhadni egallashdavomida juda ko'p qirg'inliklar qilayotgan edi. Bu shaharda payg'ambar avlodlari, sayyidlar xonadonining mashhur mashhur vakili Imom Ali Muso Rizo avlodidan bo'lgan shayx Abutolib Din Muhammad oldiga boradi va quyidagicha deydi: " Mening bir qizim bor, agar xalqimni va oilamni ushbu qirg'indan qutqarsang, qizimni senga nikohlab beraman". Shunda so'ng Din Muhammad aralashuvi bilan Imom Ali Muso Rizo xonadoni kulfatdan asrab qolinadi. Va'daga vafo qilgan holda Imom Ali Abutolib o'z qizi Shahribonu begimni (Ba'zi adabiyotlarda Zuhra bonu ) Din Muhammadga nikohlab beradi. Bu nikohdan Nodir Muhammad dunyoga kelgan.

<sup>1</sup> Jumanazar A.. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent: Akadernashr, 2017 — 592-bet. ISBN 978-9943-4728-2-2.

Nodir Muhammadning 12 o'g'li bo'lganligi ma'lum . Uning o'g'illaridan Abdulaziz sulton, Bahrom sulton, Abdurahmon sulton, Ollohquli sulton, Abdulg'ani sulton, Abulqosim sultonlarning nomlari ma'lum. Qizlaridan faqat Shamsiyabonu haqida ma'lumotlar mavjud.

1642-yilda xonlik taxtiga Nodir Muhammad ko'tariladi. Nodir Muhammadxon Buxoro xonligining 4-shtarxoniy hukmdori bo'lib, xonlik taxtiga o'tirgunga qadar, 1606- 1642-yillarda Balx hokimi vazifasini bajargan bo'lsa, 1642- 1646-yillar davomida Buxoro xonligining markaziy hokimiyatini boshqardi. Lekin Nodir Muhammadxon davlatni boshqarishda akasi erishgan yutuqlarni takrorlay olmadi. U xonlik hududlarini o'z o'g'illari va nabiralariga suyurg'ol qilib taqsimlab berdi. Xususan, Abdulazizga Samarqand, Xusrav sultonga Badaxshon va Qunduz, Subhonquli sultonga Balx, Qutlug' Muhammad sultonga Hisor, Abdurahmon sultonga Shibirg'on va Andxuy , nabirasi Qosim sultonga Huzor , jiyanlari Muhammaddiyor sultonga Shahrizabz , So'fi sultonga Talixon hududlarini boshqarish huquqi beriladi. Bu esa, markaziy hokimiyatning kuchsizlanishiga olib keladi.

Shuningdek , Nodir Muhammadning hokimiyatdan ketishining yana bir qator sabablari bor edi. Birinchidan, Nodir Muhammadxon o'z akasi Imomqulixon bilan meros qolgan kuchli boshqaruv tizimini vayron qiladi. O'zi istamagan holda markaziy hokimiyatning zaiflashuvi uchun shart -sharoit yaratib beradi. Siyosatda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, boshqalar fikri bilan hisoblashmay qo'ydi. Jumladan, davlat ishlarida salmoqli mavqe tutgan mahalliy zodagonlar bilan murosa qila olmaydi. Shuningdek , u Balxda valiahd sifatida hukmronlik qilgandaungaa tayanch bo'lgan ko'plab mansabdorlarni Buxoroga chaqirib, ularga yuqori lavozimlarni bergan. Xususan, Imomqulixon davrida otaliq mansabida bo'lgan qudratli Amir Yalangto'shbiy Bahodirni (Uning asl ismi Nizomiddin Boyxo'ja o'g'li Ko'kragi keng yag'rindor bolganligi uchun yalangto'sh so'zi qo'shib aytilgan. 1578-1756-yillarda yashagan) lavozimidan olib, o'ziga yaqin bolgan Abdurahmon devonbegini otaliq lavozimiga tayinlaydi. Bu esa, Yalangto'shbiy bilan munisabatlarning buzilishiga olib kelgan va bu conning o'g'li Abdulazizni qo'llab -quvvatlashiga sabab bo'lgan. Ikkinchidan, Imomqulixonning ko'zi ojiz bo'lib qolgan davrda mamlakat boshqaruvidagi katta rol o'ynaydigan davlat arboblari o'zlarini ancha erkin his qilgan va faoliyatda deyarli mustaqil bo'la bodhlagan edi. Balxdan Nodir Muhammadning kelishi va ilgarigi zaif hukmdor emas, balki iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli xonning taxtga chiqishi ba'zi yirik amaldorlarning ham tinchini buzgan. Ularning faoliyati uchun o'zlariga hayrixoh va zaifroq hukmdor maqsadga muvofiq edi. Uchinchidan, Nodir Muhammadxonning o'g'li Abdulazixon faoliyatidagi ziddiyat bo'ldi. 1645-yilda Nodir Muhammadxon davlatini larzaga keltiruvchi isyon ro'y beradi. Aslida bu isyon emas, balki Nodir Muhammadxonga qarshi uyushtirilgan fitna edi. Puxta oshlab chiqilgan rejaga ko'ra, qozoqlar Xo'jandga hujum qilib uning aholisi talandi, degan mish-mish tarqatiladi. Bu qo'zg'olonni bostirish uchun

yuborilgan Abdulazizxon "xon" deb e'lon qilinadi. Bu vaqtda otasi Nodir Muhammadxon Qarshida shikorda edi. Bu xabardan so'ng u Amudaryodan o'tib Balxga yo'l oladi. Bo'lib o'tgan jarayonlardan so'ng Nodir Muhammadxon taxtdan voz kechib , Makkaga, haj safariga ketishga qaror qiladi. Ammo unga akasidek sharafiga erishish nasib qilmaydi. U 1651-yilda Simnon viloyatiga hetganda vafot etadi. Faqatgina uning jasadi muqaddas shahargacha yetib boradi. Nodir Muhammad Madina yaqinidagi Baqiya qabristonida akasi Imomqulixon qabrin yoniga dafn etiladi.

Xususan, uning tashabbusi bilan Balxda madrasa bunyod etilgan, uning atrofida chorbog'lar, Balx arkidagi imoratlar , hazrati Ali mozoridagi gumbaz hamda bishqalarni aytish mumkin. Bundan tashqari , u Balx hokimi davrida tarixchi, olim , sayohatchi Mahmud ibn Valiga asar yozish topshirig'ini beradi. Mahmud ibn Vali 1634-1641- yillarda o'rta asrlardagi xonliklar, hukmdor va sulolar, joy nomlari haqida mufassal ma'lumot beruvchi, yetti qismdan iborat "Bahr ul-asror" asarini yozadi. Xulosa qilib aytganda Nodir Muhammadxon xonlik davrida akasidek , e'tirof etilmagan bo'lsa-da , mamlakat obodonchiligi yo'lida ma'lum ishlarni amalga oshirgan edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akbar Zamonov "Buxoro xonligi tarixi" . Toshkent 2021. 171-227-betlar.
2. Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi" . 260-270 -betlar.
3. Anatoliy Sagdullayev "O'zbekiston tarixi davlatchiligi" 175-190-betlar.